

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini pedagogik kompetentligini rivojlantirish 6

M.A.Shaxodjayev, J.G'.Obidov

Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda mustaqil ta'lim orqali o'quv materiallarini immitatsion-variativlik asosida modellashtirish texnologiyalari 10

Sh.M.Ibragimov

Hemis tizimida masofali ta'lim sharoitida onlayn nazoratni tashkil etish 14

A.U.G'ofurov

Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari 19

B.Sh.Mo'llayev

Shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari 26

A.B.Uralov

Affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq nomutanosibliklar 32

R.A.Hamroqulov

Sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda yangi texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi 37

M.M.Yuldashev

Sog'lom turmush tarzini joriy etish va jismoniy madaniyat mutaxassislarini valelogik madaniyatini rivojlantirish 41

Sh.D.Ismoilov

Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini shakllantirishning nazariy metodologik asoslari 45

B.B.Djalalov

Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli 48

K.I.Marayimova

Bo'lajak o'qituvchilarni muzey pedagogikasi faoliyatiga tayyorlash bo'yicha xorijiy tajribalar 54

A.A.Abdusattorov

Musiqa fani o'qituvchisining kasbiy tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari 59

J.E.Tursunov

Texnologiya darslarida o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish 63

FALSAFA

A.A.Qambarov

O'zbek falsafasi shakllanishida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining o'rni va ro'li 68

I.A.Asatulloev

Zamonaviy g'arb falsafasida qalb konsepsiysi 75

M.D.Pardayeva

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida alisher navoiy tasavvufiy qarashlarining o'rni 80

S.Q.Qakhorova

Amir Xusrav Dehlaviy falsafiy-nazariy ta'limoti 85

D.O.G'afurov

Tasavvuf ta'limotida tolerantlik masalasi va uning oila farovonligini ta'minlashdagi o'rni 88

G.A.Karimova

Oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri 92

M.Sh.Qoraboyeva

O'rta asrlar islom olamida gnoseologik faoliyatning teologik asoslariiga doir qarashlar 100

Sh.I.Valiyev

Sun'iy intellekt tushunchasiga ontologik yondashuv 104

TASAVVUF TA'LIMOTIDA TOLERANTLIK MASALASI VA UNING OILA FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

ТОЛЕРАНТНОСТЬ И ЕЕ РОЛЬ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СЕМЕЙНОГО БЛАГОСОСТОЯНИЯ В УЧЕНИИ СУФИЗМА

TOLERANCE AND ITS ROLE IN ENSURING FAMILY WELFARE IN THE TEACHINGS OF SUFISM

¹G'afurov Doniyor Oripovich

¹Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotida bag'rikenglik tushunchasi o'zgalarning xulq-atvori, yashash turmush tarzi, fikr-mulohazalari, gapirishi, his-tuyg'ulari, e'tiqodi, harakatlariga nisbatan sabr-toqatli, chidamli bo'lishini anglatishi va uning oila farovonligini ta'minlashda tutgan o'rni haqida bayon qilingan.

Annotatsiya

В данной статье понятие толерантности в учении суфизма означает терпение и сопротивление поведению, образу жизни, мнениям, речи, чувствам, убеждениям и действиям других и ее роль в обеспечении благополучия семьи.

Abstract

In this article, the concept of tolerance in the teachings of Sufism means being patient and resistant to the behavior, lifestyle, opinions, speech, feelings, beliefs, and actions of others and its role in ensuring the well-being of the family.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, tolerantlik, bag'rikenglik oila farovonligi, g'oyaviy tarbiya, ta'lim, fan, tarbiya.

Ключевые слова: суфизм, толерантность, толерантность, семейное благополучие, идеологическое воспитание, образование, наука, воспитание.

Key words: Sufism, tolerance, tolerance, family well-being, ideological education, education, science, education.

KIRISH

Buyuk allomalar yurti deb e'tirof etilgan O'zbekistondan ko'plab ilm-ma'rifat tamadduniga katta hissa qo'shgan allomalar yetishib chiqqan. Ularning boy ilmiy merosini o'rganish, ular ustida tadqiqotlar olib borish borasida yurtimizda muhim ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan ularning ta'limotining asosiy o'rnidagi inson va uning kamoloti va haq yo'liga yetishish turadi. Bu tushunchalar har bir insonga oilada singdirilib, tarbiya qilib boriladi.

Sog'irom muhit qaror topgan oilalar yurt koriga yaraydigan, el xizmatiga kamarbasta bo'la oladigan farzandlarni tarbiyalab, kamolga yetkazishning eng asosiy omillaridan biridir. Shu boisdan ham mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta'minlash, uni moddiy va ma'nnaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonardonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahilik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'nnaviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur. Ayollar o'tasida jinoyatchilik, oilalarda ajralishlar ko'paygani, yoshlarning turli diniy-ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlar ta'siriga tushishi kabi xalqimizga xos bo'lmagan achchiq va noxush masalalar bilan bog'liq"[1].

NATIJA VA MUHOKAMA

Oilalarda axloq inson kamolotining dastlabki omili bo'lib, u aql buyurgan ravishda harakat qilish, yaramas ishlardan, yomon so'zlardan o'zini saqlashdir. Kishilar qadimdan yosh avlodni axloq qoidalariga o'rnatib, go'zallik, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni bolalarga juda erta singdirib borishgan. Axloq ma'nnaviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo'lsa, odob o'z navbatida axloqiy fazilatlarning yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni anglab yetish odobdan axloqqa, axloqdan ma'nnaviyatga qarab teranlashib boradi. Ammo shu bilan birga axloq odobga nisbatan, ma'nnaviyat esa axloqqa nisbatan keng qamrovi mohiyatlardir. Inson odobi uning barcha axloqiy fazilatlarini namoyon eta olmaganidek, shaxsning barcha axloqiy sifatlarini bir yerga jam etganda

FALSAFA

ham baribir, uning ma'naviy dunyosini to'liq qamrab olgan bo'lmaisiz. Asli ma'naviyat Haq nurining ko'ngil ko'zgusida aks etishi bo'lganligidan muayyan ma'noda ko'ngil egasining o'ziga ham oxirigacha ma'lum emasdир, g'aybga tutashdir. Allomalar inson ko'nglini tilsim ataydilar. Ko'ngil ko'zgusidagi ma'naviyat nuri tufayli har bir inson o'zi sehrli tilsimiga aylanadi, mohiyatan cheksizlik kasb etadi va u insonlarni bag'rikeng bo'lishga olib keladi.

Bag'rikenglik tushunchasi o'zgalarning xulq-atvori, yashash turmush tarzi, fikr-mulohazalari, gapirishi, his-tuyg'ulari, e'tiqodi, harakatlarga nisbatan sabr-toqatli, chidamli bo'lishini anglatadi. O'zbek tilida nashr etilgan lug'atlarda bag'rikenglik "tolerantlik" (tolerantlik – lot.tilida: "tolegaptio" matonat – chidam, sabr-toqat) tushunchasining sinonimi sifatida ishlataladi. Bag'rikenglik – o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g'amxo'r, saxiy, keng-fe'lli bo'lgan, ana shunday ma'naviy fazilatlarga ega kishilarni ifodalovchi tushunchadir.

Rossiyada chop qilingan sotsiologik lug'atda tolerantlikka quyidagicha ta'rif beriladi:

- a) Yot odamning turmush tarzi, xulqi, urf-odati, xissiyoti, fikri, g'oyasi, e'tiqodiga chidamlilik bilan yondashuv;
- b) noqulay omillarni sezmay qolish natijasida sodir bo'lgan xodisalarga bog'rikenglik bilan yondashuv;
- v) noqulay, nomaqbul xissiy omillar ta'siriga xam chidam bilan yondashuv[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mark Natturno tolerantlikni o'zga hayot tarzi, nuqtai nazar, g'oyalar va e'tiqodlarga toqatlilik, bag'rikenglikdir deb, o'z fikrini shunday davom ettirgan: "Mening fikrimcha, biz erkin va ongli mavjudot bo'lganligimiz sababli aybni atrofdagilarga ag'darishdek bid'atlardan xoli bo'lishimiz kerak. Alalxusus, bu tolerantlikka aloqador bo'lib, ushbu tolerantlikni uzoq muddat erkinlikka to'siq bo'lib kelgan diniy, etnik va irqiy xurofotlarni yengib o'tish yo'lidagi urinishlarimiz sifatida tafsivlash mumkin".

Mark Natturno fikrlaridan ayonki "Tolerantlik – bu yoqmaydigan, xatto yovuz deb xisoblanuvchi narsalarga toqat bilan munosabatda bo'lishdir". Munosabatning bunday turini ma'rifatparvar faylasuflari bo'lmish Volter va Jon Lokk diniy ta'birlarga qarshi chora sifatida talqin etishgan va bu XVIII asrdan boshlab axloqiy ideal sifatida qadrlangan[3].

Islomda XIV asr ilgari Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ummatlarini bag'rikeng bo'lib yashashga chaqirgan. Sahobalarga barcha jabhada bag'rikeng bo'lish kerakligini uqtirib "Sotganda ham, sotib olganda ham, haq talab qilganda ham bag'rikeng bo'lgan kishiga Alloh rahm qilsin", - dedilar[4].

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam o'zlarining nafsi uchun hech qachon g'azab qilmaganlar, birovdan o'ch olmaganlar. Shu sababli buyuklarning buyugi darajasida maqtalganlar. Bunday go'zal sifatlar payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam va u zotning sahobalari amal qilgan yo'lda sobit qolgan "Ahli sunnat val-jamoat" e'tiqodida bo'lgan valiyolar, avliyolar va payg'ambarimizning ummatlarida kuzatilgan.

Bag'rikeng kishilar timsoli sifatida, hozirgi kunda dunyo bo'ylab keng tarqalgan naqshbandiya tariqati asoschisi, Buxoroyi sharifda yashab o'tgan hazrat Bahouddin Naqshband va shu tariqatning davom ettirgan tasavvuf namoyandalari hisoblanadi[5]. Ularning uzoq umr ko'rishlari, ilm o'rganishlari, sog'lom bo'lishlari, saxovatpeshaliklari, omma bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari, har bir ishga Allohga tavakkul qilishlari, ulardagi bag'rikenglik sifatlaridir. Naqshbandiya ta'limotini buyuk namoyandalardan biri "Silsilai sharif" "oltin zanjir"da 32-halqaning piri murshidi Axmad Ziyoudin al-Kumushxonaviy mana shunday bag'rikeng insonlardandir[6].

Ahmad Ziyoudin al - Kumushxonaviy hijriy 1228 (milodiy 1813) yilda Rum diyori hozirgi Turkiyaning Kumushxona shahrining "Amirlar" mahallasida boy xonadonda dunyoga kelgan, ajdodlari Buxoroi Sharifdan bo'lgan. Otalari solih inson bo'lib, tijorat bilan shug'ullangan . Axmad Ziyoudin al-Kumushxonaviy besh yoshida o'kishni boshlab, sakkiz yoshida Kur'oni karimni yod olib, "Hofizi Qur'on" bo'lgan", "Daloili xoysot", "Qasidai Burda" va "Hizbul A'zam" kabi kitoblarni qiroat qilishga ustozlardan ruxsat olgan[7].

Oliyhimmatli, serg'ayrat, irodali, qat'iy xulq sohibi bo'lmoq ilm talab qilishda zarur bo'lgan insoniy fazilat hisoblanadi. Bu go'zal sifatlar Axmad Ziyoudin al-Kumushxonaviyda namoyon bo'lgan.

Axmad Ziyoudin al-Kumushxonaviy o'n yoshida otasi Qora dengiz atrofidagi shaharlardan biri Turabzonga hijrat qiladi. U yerdagi peshqadam olimlardan olat (balog'at), sarfu nahv, ma'oniy

(adabiyot, badiiyat) va mantiq bilimlarini, hamda shariat ilmlarini o'rgana boshlaydi. Yosh bo'lishiga qaramay, do'konda otasiga ham yordam berib, bir tomonidan ilohiy ishq va shavq bilan ilm tahsiliga say' va g'ayrat qilar edi, ammo maqsadi ko'proq ilm olishda edi.

Yoshligida halol pul topishga harakat qilib, o'z qo'llari bilan hamyon to'qib sotgan va topgan pullarini ilm izlash yo'lida sarflagan. 18 yoshlarida amakisi bilan Istanbulga kelib, otasi uchun kerakli tijorat mollarini olib, amakilariga topshiradilar va bunday dedilar: "Muhtaram amakjon, men shu lahzada ilm va ma'rifat shahri bo'lgan Istanbulda turganimdan ulug' bir saodat va baxtiyorlik og'ushidaman. Men uchun ilm va ma'rifatni qo'lga kiritish hamma narsadan ortiq turadi. Zinhor mendan rajib, xafa bo'lman. Vaqtida, kelajakda kerak bo'ladi, deb, o'z qo'lim bilan hamyonlar to'qib, ularni sotib, bir qancha pul yiqqan edim. O'zimda hech narsa qoldirmasdan, bularni ham sizga topshirib, otamga jo'nataman" [8].

Ibodat bilan halol kasb qilish Qur'on karimning bir necha joyida zikr qilingan. "Bas, namoz tugagandan so'ng yer yuzi bo'ylab tarqaling va Allohning fazlidan talab qiling va Allohni ko'p eslang, shoyadki, yutuqqa erishsangiz" (Jum'a surasi 10-oyat) [8].

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: "Eng yaxshi kasb – kishi o'z qo'li bilan kasb qilishi va har bir yaxshi savdo", Rofe' ibn Xadij raziyallohu nahu rivoyat qilinadi (Imom Ahmad rivoyatlari). [9].

Ahmad Ziyouuddin al-Kumushxonaviyning bag'rikeng inson bo'lganliklarini ifodalovchi dalillardan biri bu ulug' zot payg'ambarimizning yuqorida keltirilgan hadislariga amal qilib, o'z qo'llari bilan to'qigan hamyonlarini sotib topgan pullardan bir tiyin ham, saqlamay otasiga bergenadir.

Ahmad Ziyouuddin al-Kumushxonaviy mukammal ilmi sababli - ilm talabida bo'lgan kishilarga islomi dars beruvchi ulamo vazifasiga tayinlandi. Shariat ilmlarini mukammal o'rganib, tasavvuf va tarikat sohasida shayx Axmad Ziyouuddin Arvodiyan dars olib kamol topdi. Shayx Kumushxonaviyga piri murshidlari 240 ta asarni o'qitish va o'rgatish vazifasini topshirgan. Kumushxonaviy eng buyuk saxovat ilm tarqatish ekanligini qalblaridan anglab, tolibi ilmlarga o'z ilmlarini xolis o'rgatganlar.

Shu sababli shayx Kumushxonaviyning muridlarining soni milliondan ortiq bo'lgan. Bu sifatlar u kishida bo'lgan bag'rikenglikni qirralaridan birini ko'rsatadi.

Axmad Ziyouuddin al-Kumushxonaviyning bag'rikenglik sifatidan ya'ni biri ilm oluvchilar, kitobxonlar sonini ko'paytirish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida bosmaxona qudirib, ilmiy kitoblarni ilm toliblariga bepul tarqatgan [10].

XULOSA

Mutasavvuf olim nafaqat ilm olish, odob- axlok sohasida , balki xalqni iqtisodiy tomonidan qo'llab quvvatlash sohasida ham ancha xizmat qilgan. Bunga dalil tabarruk zotning foizsiz bank tuzdirib, muhtoj bo'lganlarga hojatlarini qoplaydigan miqdorda qarz berdirib, qulay shartlar asosida imkoniyatlari bo'lganda qarzini to'lash uchun sharoitlar yaratganlar [10].

Ahmad Ziyouuddin al-Kumushxonaviyning bag'rikeng inson ekanligini ko'rsatuvchi dalillar sifatida quyidagi larni aytish mumkin:

1. Halol mehnat bilan topgan daromatlarini xolis ehson qilishlari.
2. Mukammal ilmni o'rganib, tolibi ilmlarga xolis o'rgatishi.
3. Bosmaxona qudirib, ilmiy kitoblarni nashr etib ilm toliblariga bepul tarqatishi.
4. Foizsiz bank qudirib, xalqni iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlagani.
5. U kishining amalga oshirgan ilmiy mehnatlari ko'lami shunday keng bo'lganki, bu ishlarni bajarishda kimlarningdir balki , bir necha umri yetmagan bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimizni bag'rikeng inson qilib tarbiyalashda tasavvuf ta'limotining o'rni va mutasavvuflarning ibratli hayotlari ibrat bo'ladi, deb hisoblayman.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. - Т.: "Ўзбекистон", 2017. - 102 б.
2. Российская социологическая энциклопедия. – М. : Наука, 1998. – 278 с.
3. М. С. ХажиеваР. Б.Хожиев Толерантлик ва унинг хусусиятлари. The culture of tolerance in the context of globalization: methodology of research, reality and prospect. Materials of the international scientific conferenceon May 13–14, 2014 39 -40 бет Prague 2014
4. Г.Н.Наврӯзова Нақшбандия тасавvuфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси.Т.: "Фан", 2005. Т.; 63 б.
5. Абдулазиз Усмон. Расулуллоҳ бир кунлари. Т.: "Нилол", 2019. 1286.

FALSAFA

6. Гуламова М.Т. Мушку анбар хидли валоят гунчаси - Зиёуддин Аҳмад ал-Кумушхонавий. Журнал. Имом Бухорий сабоқлари 2020. №2. 28 б.
7. Зиёвуддин Аҳмад Ал-Кумушхонавий,таржимон Мирзо Кенжабек, Жомеъ ул-мутун. Т.:Мовароуннахр; 2000й. 302 б.
8. Қуръони карим. Тафсири ҳилол. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Т.: “Шарқ”, 6 том 2008. 143 б.
9. <http://muslim.uz/index.php/magolalar/zhuma-mav-izalari/item/17748-29-11-2019-j-alol-kasb-baraka-kaliti>.
10. Гуламова М.Т. “Силсилаи шарифдаги пири комил - Зиёуддин Аҳмад ал - Кумушхонавий” “Жаҳон маданий цивилизацияси контекстида ҳожагон, накшбандия тасаввуфий таълимотлари илмий маънавий меросининг умумбашарий ахамияти” мавзусидаги ҳалкаро илмий конференция материаллари. 2 - китоб, Навоий: 2019 й.9 б.